

Guash bilan chizamiz



Guash rasm chizish uchun mo'ljallangan, suvda eruvchan yelimli bo'yoq turidir. U bilan rasm chizish juda qulay va maroqli. Guash yorqin va quyuq bo'lib, qog'ozga oson surtiladi. Undan ham rassomlar, ham bolalar bajonidil foydalanishadi.

Guashning xususiyatlari:

- Guash suv va rangli kukun – pigmentdan tayyorlanadi.
- U shaffof emas, shuning uchun bir rang ustidan boshqasini osongina bo'yash mumkin.
- Bo'yoqni bir necha qatlam qilib surtsa bo'ladi, biroq juda qalin qatlam quriganida yorilib, to'kilib ketishi mumkin.
- Tez quriydi.
- Hidi yo'q. U bilan ishlash maroqli va xavfsiz.
- Agar suv qo'shilsa, rang ochroq va mayinroq bo'ladi.
- Guash quriganidan so'ng jilosiz – yaltiramaydigan bo'lib qoladi.
- Guash bilan ishlash uchun palitra va har xil o'lchamdagi mo'yqalamlar kerak bo'ladi.
- Guash yordamida qog'oz, karton, faner va boshqa materiallarga rasm solish mumkin.



1. **Guashning afzalligi nimada?**
2. **Guash nimasi bilan akvareldan farq qiladi?**
3. **Guash va akvarelning umumiy jihati nimada?**



Guash bilan gullar solingan guldon rasmini chizing.




1


Rasm chizish bosqichlari:

1. **Qora rangli qog'ozga guldon shaklini chizing** (oq qalamdan foydalanish mumkin).
2. **Guldon ustiga guldasta chizing:** 5–7 ta yirik gul, barglar va poyalar.
3. **Guldonni oq rangli guash bilan bo'yang**, unga moviy va pushti ranglar ham qo'shing.
4. **Gullarni bo'yang** va kichik detallar qo'shing.

1



2



3



4



5

